

tinglash, har bir guruhga muammoni bayon etish bilan chiqishga imkon berish. Interfaol usullar o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi doimiy o'zaro munosabatlarni ko'zda tutadi.

Ularni noto'g'ri qo'llash bu usullar samaradorligini pasaytirish yoki bu haqida noto'g'ri tushuncha paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Pedagogikada o'quvchilarning savollar va javoblar tizimi suhbat deyiladi. Suhbat usuli atroflicha o'ylangan savollar yordamida o'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi suhbatni ko'zda tutib, ularning mustaqil fikrlashini yangi tushunchalarni egallashga olib keladi. Uni qo'llashda savollarni qo'yish, o'quvchilarning javob va mulohazalarini muhokama qilish, xulosalarni shakllantirish, javoblarni tuzatish usullaridan foydalaniladi. Suhbat davomida o'qituvchi o'quvchilar tomonidan matematik terminlardan to'g'ri foydalanish, nutq savodxonligiga alohida e'tibor qaratadi. Bu turli tushuntirishlar bilan olib boriladi hamda ularning qabul qilishi aniqlashtirilib boriladi. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarni geometrik figuralarni tekshirishga o'rgatadigan bo'lsa, figurani chap qo'lingizga olib, kvadrat tomonlarini ko'rsating (masalan: to'g'ri uchburchak, uchburchak) deb tushuntiradi. Yoki boshqa misol, o'qituvchi o'quvchilarni o'lchashga o'rgatadigan bo'lsa, o'lchovni qo'yadi, keyin o'lchashni qanday hisoblash kerakligini ko'rsatadi va gapirib beradi. O'quvchilar katta bo'lgan sari ularga beriladigan muammoli savol va holatlar ham kattalashib boradi. Muammoli vaziyatning yuzaga kelishi: dalil va natija o'rtasidagi aloqa birdaniga ochilmaydi, asta-sekin bo'ladi. Bunda savol tug'iladi: Bu nima? (masalan, turli predmetlarni suvga tushiramiz: bittasi cho'kadi, boshqasi cho'kmaydi); materialning ayrim qismlarini bayon qilgandan keyin o'quvchi taxmin qilishi kerak (masalan, muz erishi, issiq suv bilan tajriba qilish, masalani yechish); "ba'zan", "ayrimlari", "faqat ayrim hollarda" kabi so'zlardan foydalanish o'ziga xos bilish belgilari bo'lib xizmat qiladi; dalilni tushunish uchun uni boshqa dalillar bilan solishtirib ko'rish, muhokama tizimini yaratish, ya'ni ayrim aqliy operatsiyalarni amalga oshirish lozim (masalan, turli o'lchovlarni qilish, guruh bilan hisoblash). Muammoli topshiriq usulida aniq vaziyat va qo'yilgan masalaning mohiyatidan kelib chiqqan holda muammoli topshiriqlar yordamida samaraga erishish mumkin. Materiallarni o'zlashtirish, topshiriqlar hamda mashq va masalalar yechimida muammoli vaziyat yaratilishi qo'l keladi. Bunda kichik guruhlar shakllantiriladi, o'quv materiallari guruhlarga alohida-alohida bo'lib beriladi.

Yakuniy xulosalar va yechimlar topilgach mavzular guruhlar orasida ayirboshlanadi.

O'quv mashg'uloti jarayoniga tadbiiq qilinadigan har qanday pedagogik texnologiya, uning komponentlari mashg'ulot mazmuni, o'quv dasturi, darslik yoki pedagog faoliyati orqali o'tilishidan qat'iy nazar, o'quvchining erkin va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi talab etiladi. O'qitish usullari o'quv mashg'uloti jarayonining asosiy qismi hisoblanadi, ularsiz pedagogik faoliyatni amalga oshirib bo'lmaydi. Bilimlarni uzatish va qabul qilish harakteriga qarab so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliy usullarga bo'linadi. O'quv mashg'uloti mavzulari mazmunini o'zlashtirishda, tushuntirish-illyustrativ, reproduktiv, muammoli bayon, xususiy qidirish yoki evristik hamda yarim tadqiqot usullari qo'llaniladi. Amaliy usullarda vazifa (maqsad)ni qo'yish, uni bajarish usulini rejalashtirish,

bajarish jarayonini boshqarish, tahlil qilish, kamchiliklar sababini aniqlash, maqsadga to'liq erishish uchun o'quv mashg'uloti jarayoniga tuzatish va o'zgartirishlar kiritish ishlari amalga oshiriladi. Amaliy mashqlarni bajarishda o'quvchilar bo'lajak hattiharakatlarini faol mushohada qiladi, o'ziga-o'zi eshittirib gapiradi hamda bo'lajak voqeani sharhlaydi. Erkin fikrlash usuli illyustrativ rasmlar, fotolavhalar kabilar va ularning muhokamalariga bag'ishlanadi. Bu mashg'ulotdan ko'zda tutilgan maqsad o'quvchilarning bilim doirasini, dunyoqarashini kengaytirish, ularni rasmlar, fotolavhalar, kitoblar bilan tanishtirish orqali, ularning bilim olish va qiziqishlarini orttirish, avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qo'llash orqali yangi bilimlarni egallashlariga erishishdir. Topshiriq quyidagicha bo'lishi lozim: hajmi katta bo'lmasligi, lekin mazmunli, o'zlashtirishga, mustahamlashga, takrorlashga, fikrlashga, amaliy jihatiga qaratilgan bo'lishi; guruhda bajarilganga nisbatan oddiy va tushunarli bo'lishi; ayniqsa masala, misol va gaplarni tuzishda, amaliy ishlarni o'tkazishda o'quvchilarning kuzatishlari va fikrlariga bog'liq bo'lishi; uy vazifasining to'g'ri bajarilishi uchun aniq bir ko'rsatmalar berilgan bo'lishi; o'quvchilarning tayyorgarligi va imkoniyatlarini inobatga olib individuallashtirish lozim: o'qituvchi o'quvchilarning intizomi va javobgarligini ta'minlash uchun uy vazifasini uz vaqtida tekshirib turishi lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, mamlakatimizda ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Tarbiyalanuvchilarning matematik faolligi turli-tuman sharoitlarda: teatrlashtirilgan faoliyatda, qurish-yasash o'yinlarida, faoliyat markazlarida o'stirildi. O'quvchilarning namoyon bo'lgan kuchli tomonlarini bilish nafaqat tahlil uchun muhim, balki ularda kelgusida kasb tanlash, matematik qobiliyatni rag'batlantirish istiqbollari belgilash imkonini beradi. O'quvchining namoyon bo'lgan qobiliyatini inobatga olish nafaqat ularni rivojlantirish uchun, balki uning iste'dodini tegishli oqimga yo'naltirish uchun ham zarur. tajribalar shuni ko'rsatdiki, o'yinlar va interaktiv usullar o'quvchilarning matematik qobiliyatini rivojlantirishga ko'maklashadi, matematikada keng mo'ljal olish va matematik taassurotlar zaxirasining to'planishiga sharoit yaratadi, "Davomati va o'zlashtirishi past o'quvchilar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilishga asos yaratadi.

"Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishi, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotiga nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutmog'imiz kerak".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 20- dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasi.
2. "Maktab pedagogika" F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.Kayumova, M.A'zamova.- Toshkent:, Tafakkur nashriyoti, 2019.-28-35b.

3. https://library.samdu.uz/files/dd89206580514d6fe27fa9ea2b98f50f_MATEMATIK%20TASAVVURLARNI%20SHAKLLANTIRISH%20NAZARIYASI%20VA%20METODIKASI.pdf
4. <https://e-library.namdu.uz>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/matematik-tasavvurlarni-rivojlantirish-metodining-amaliy-ahamiyati>
6. <https://elib.buxdupi.uz/books/QO'LLANMA.pdf>

ZAMONAVIY DAVRNING DOLZARB IMKONIYATLARI

Boymuratov E.K

Fargʻona ICHSHUI kasb-hunar maktabi

Maxsus fan oʻqituvchisi

Annotasiya: *Zamonaviy davrning dolzarb imkoniyatlari haqida maʼlumotlar berilgan.*

Kalit soʻzlar: *Axborot texnologiyalari, JAWS Word Windows brigre, Vertual kursor, Koʻzi ojizlar jamiyati.*

2019-yilning 8-oktabr kuni Prezidentimizning tegishli farmoni bilan Oʻzbekiston Respublikasi taʼlim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlandi. Taʼlim muassasalarida konsepsiyani oʻrganish, uning asosida kerakli vazifalarni belgilab olishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi dunyoda insoniyat nihoyatda murakkab davrni boshidan kechirayotgani guvohi boʻlmoqdamiz. Yer yuzidagi iqlimning keskin oʻzgarishi, suv va tabiiy resurslar kamayishi bilan bogʻliq muammolar katta xatarlarga aylanmoqda.

XXI asr axborot asri boʻlganligi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning oliy majlisga murojaatnomasida 2023-yilni “Insonga eʼtibor va sifatli taʼlim yili” deb eʼlon qilinishi bejizga emas. Shu sababli mamlakatimizning turli korxonalar va tashkilotlari, oliy va oʻrta maxsus oʻquv yurtlarini zamonaviy kompyuterlar bilan taʼminlash hamda bu kompyuterlarni ishlatish uchun yetuk mutaxassislar tayyorlash, shuningdek kompyuterlarni xonaga joylashda mehnat muhofazasi qonun qoidalariga rioya etishni talablari ishlab chiqildi.

Haqiqatan mazkur asr dunyoda koʻz koʻrib, quloq eshitmagan yangilik va oʻzgarishlarga moʻl davr boʻlishi bilan ahamiyat kasb etmoqda. Aql bovar qilmaydigan moʻjizalar dunyo yuzini koʻrmoqda. Xalqaro miqyosda axborot almashinuvi, fan, madaniyat va sport sohalarida ishni tez, aniq va sifatli bajarishga xizmat koʻrsatadigan muhim ixtirolar kashf etilmoqda. Bu hammasi inson hayotiga, turmush tarziga va kundalik ehtiyojiga bevosita taʼsir koʻrsatuvchi omillardan sanaladi. Bu hammasi inson qoʻlidan kelgan va kelayotgan yangi texnologiyalarning samarasidir, albatta. Inson oʻzi uchun, oʻz iqboli va kamoli uchun qadimdan kurashib kelayotganligining bir ulushi bu. Ular ichida eng yuqori pogʻonada turuvchi moʻjiza, bu shubhasiz, kompyuter XIX asrning ikkinchi yarmida Amerika olimlari tomonidan ixtiro qilingan birdan-bir texnologiyadir. Yangi texnikaning barcha sohalarida xizmat koʻlami keng, muhimi, dunyo miqyosida INTERNET tizimining yaratilishi va cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligi bois, u tez fursatda jahon boʻylab tarqala boshladi. Qadam qoʻygan asrimizning kelajak ravnaqi ham ular bilan uzviy bogʻliqdir. Shuning uchun zamonaviy texnikaga oid bilimlardan avvalo yosh avlod, qolaversa, turli toifadagi kishilar xabardor boʻlishlari darkor. Shunday ekan, zamon bilan hamqadam

yurishga intiluvchi bizning ko'zi o'z yoshlarimiz ham bu muhim yangilikka befarq qaramay, aksincha, uni bor ishtiyoq ila o'rganishga azmu qaror qilganliklari amalda o'z isbotini topayotir.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida 62000 dan ziyod ko'zi o'z insonlar istiqomat qiladi.

13-noyabr jahon sog'liqni saqlash tashkiloti qarori bilan butun dunyoda xalqaro ko'zi o'zlar kuni sifatida nishonlanadi.

O'zbekiston Ko'zi o'zlar jamiyati ko'rish qobiliyati cheklangan insonlarga ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, reabilitatsiya qilishga ko'maklashadi, shuningdek Jamiyatning 23 mingdan ortiq a'zolarining ijtimoiy integratsiyasini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

Imkoniyati cheklangan insonlarning manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy moslashuvi va reabilitatsiyasiga ko'mak berishga qaratilgan davlat va jamoat tuzilmalari faoliyat yuritmoqda. Nogironligi mavjud insonlar uchun maxsus maktab-internatlari tashkil etilgan. Ulardan 12 tasida 3 ming nafardan ortiq ko'zi o'z va zaif ko'ruvchilar tahsil oladi. Bunday maktablarning faoliyat yuritishi nogironlarning tarbiyasi, umumta'lim va kasb-hunarga o'rgatish, keyinchalik esa ularning ishga joylashishiga ko'mak beradi.

2018/2019 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalariga abituriyentlar qabulining umumiy sonidan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qo'shimcha ravishda 2 foizli kvotalar kiritilmoqda. Bu esa ularning oliy ma'lumotga ega bo'lishini ta'minlab, jamiyatga moslashish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Barcha viloyatlarda ko'zi o'zlar jamiyati faoliyat yuritmoqda va mamlakatimizning mehr-shafqatli fuqarolari tufayligina ko'rish qobiliyatini yo'qotib, qiyin hayot sharoitida qolgan insonlarga yordam qo'lini cho'zadi. Bizning hozirgi oson bo'lmagan, moddiy ko'mak va g'amxo'rlikka muhtoj odamlar soni kundan-kunga ko'payib borayotgan bir vaqtda o'zgalarning muammolari, g'am-tashvishlarini o'zinikidek qabul qiladigan odamni topish juda mushkul, ammo shunisi ajoyibki, bunday insonlar hali ham oramizda topiladi.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida shu kuni jamiyatning e'tiborini ko'zi o'z va zaif ko'radigan insonlarga jalb qilish, shuningdek, ushbu insonlarning jamiyat hayotida har tomonlama ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, ularning kasb va bilim olishlari uchun imkoniyatlarini kengaytirish, ularga boshqa fuqarolar bilan teng sharoitlar yaratish maqsadida davlat o'z tassarrufiga olgan va undan tashqari xar yili 3-dekabr nogironlar kunida keng miqyosda ko'ngilochar tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Buning yorqin misolida sifatida Farg'ona shaxar Imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabida xam "Kutubxonashunoslik" yo'nalishida ko'zi o'zlar tahsil oladi. Xar yili ko'zi o'zlar uchun kasb-hunar maktabi raxbariyati va jamoasi ishtirokida ko'plab sharoyitlar yaratib kelinmoqda.

Axborot bilan nafas oluvchi hozirgi davrni kompyuter texnikalari, INTERNET, televidenie va boshqa axborot texnologiyalarisiz tasavvur etish mushkul. Zero, ular nafaqat sog'lom, balki jismonan imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ham

axborotdan foydalanish bilan bog'liq masalalarni yechishning eng samarali yo'llarini taqdim etadi. Ko'zi ojiz nogironlar ekranga kirishning maxsus dasturlaridan foydalanar ekanlar, ekranda aks etishi istalgan matnli axborotni o'qish, hujjatlarni tahrir qilish, elektron jadvallar ustida ishlash, musiqa, kinofilmlar bilan shug'ullanish, hatto INTERNET bo'ylab sayr qilish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Ekranga kirish dasturlari ekranda namoyon bo'lgan odatdagi matnli axborotlarni nutq sintezatori yoki braylcha displey orqali ko'rsatiladigan relef-nuqtali (brayl usulidagi) shriftga o'girib yetkazib beradi.

Dunyoda ko'zi ojiz va qisman ko'ruvchilarning bir necha yuz mingi shaxsiy kompyuterlardan foydalanadi. Bunda ularga JAWS Word Windows brigre kabi ekranga kirish dasturlari ko'proq ko'mak bersa, ajabmas. Chunki ular grafik elementlar, aniqrog'i, tasvirlar bilan ishlashni talab qilmaydigan dasturlarda operiyalarning 90 foizini amalga oshirishga qodirdir. Masalan, klaviatura beradigan buyruqlar kompyuterga axborot kiritish qurilmasi bo'lmish sichqonchaning deyarli barcha harakatlarini takrorlaydi. Ya'ni, sichqonchaning ishini klaviatura ham bajara oladi. Klaviatura tugmalarining kombinatsiyalari (ikki yoki undan ortiq tugmaning birga bosilishi) natijasida esa foydalanuvchi hujjatning o'lchami, rangi, yozilgan shrifti shakli, formati haqidagi axborotni olishga muyassar bo'ladi. Yana aytish kerakki, ekranga kirish dasturlari xizmati tegishli oynalarda aks etgan dialoglarni, jadval ro'yxatlarini o'qish va boshqa ko'plab imkoniyatlarni foydalanuvchiga tuhfa etadi. Albatta, bunda yozilgan qatorni, so'z va harflarni o'qishga o'xshash operatsiyalar ham amalga oshiriladi.

Ko'rish qobiliyatidan mahrum holda INTERNETdan foydalanish ko'plab savollarni ko'ndalang qo'yishi shubhasiz, albatta. Gap shundaki, Xenter Joitse Ins. Kompaniyasining "Vertual kursor" nomli oxirgi ishlab chiqqan dasturi ko'rish imkoniyati cheklangan shaxslarning INTERNETga kirish tarzini tubdan o'zgartirishga erishdi. Ya'ni, matn muharriri kompyuterdagi matnga turli xil o'zgartirishlar kiritadigan dasturdir. Foydalanuvchi matn bo'ylab kursor bilan harakatlanar ekan, ayni paytda xizmat ko'rsatish dasturi ushbu matnning formati haqidagi axborotni o'qib boradi. Yana kerakli axborotni topib beruvchi dasturlar ham gapirtiriladi.

Xullas, ekranga kirishning zamonaviy dasturlari kompyuterda ko'rish qobiliyati ishtirokisiz ham ishlash mumkinligini amaliy isbotlab berdi. Bu hol shuningdek, ko'rish qobiliyati cheklangan shaxslar o'rtasida ishsizlik darajasining pasayishiga olib kelishi bilan birga ularning o'z ustlarida ishlari, izlanishlari va o'z taqdirlarini oydinroq yaratishlariga keng yo'l ochib berdi. Darhaqiqat, ayni toifa insonlar egallashi mumkin bo'lgan bir qator yangi ixtisosliklar paydo bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, INTERNETda ovoz texnologiyalaridan foydalanish jarayonida elektron texnologiyalar sohasidagi istalgan faoliyat bilan shug'ullanish, dunyo fond bozorlari elektron savdo tizimlarida bemalol ish bajarish imkoniyatlari yuz ko'rsatadi.